

YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA ISLOM DININING JAMIYATIMIZDA TUTGAN O'RNI

Sadullayev Siroj Solexovich

*Buxoro davlat universiteti Islom tarixi va manbashunoslik mutaxassisligi 2-bosqich
magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda islom dinining tutgan o'rni, tasavvuf ta'lomi hamda hadisshunoslik ilmini o'rganishning afzalliklari to'g'risida ma'lumotlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: tasavvuf, islom, hanbaliya, to'plam, hadis, hanbaliya, davr, olim, hurmat, bag'rikenglik, islom, shariat.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy barqarorlikni saqlash, millatlararo totuvlik va dinlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlash, odamlarning diniy erkinlik, o'zaro do'stona munosabatalarini har tomonlama himoya qilish hozirgi kundagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Zero, "Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz. Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz"¹. Shu ma'noda, yurtimizda millatlararo totuvlik va dinlararo hamjihatlikni ta'minlash, turli millat fuqarolari o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, ularda vatanparvarlik tuyg'ularini kuchayishiga sabab bo'ladigan bir qator ezgu ishlarni amalga oshirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda dinning mohiyatidan anchagina yiroq bo'lgan turli oqimlar o'z g'oyalarini yoshlar ongiga texnologik vositalar orqali singdirish, yoshlarni din haqidagi tasavvurlaridan chalg'itish, turli firqa va oqimlarga a'zo

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyusiyani qabul qilish taklifi bilan murojaat qilgan nutqi. <https://religions.uz/news/detailid=589>

bo‘lishga undash holatlari kuzatilmoqda. Shu bois, e’tiqod erkinligi, odamlarning millati, diniy mansubligidan qat’iy nazar, bir-biriga nisbatan o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik ruhida murosa madaniyatini shakllantirishga, dunyoda tinchlikni saqlash bo‘yicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj kun sayin oshib bormoqda. Jahon ma’naviy madaniyati tizimida diniy bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik, yaqin qo‘schnichilik, aloqalarini yangi formatda shakllantirish, xususan, yoshlarda kuchli bilim va e’tiqod mutanosibligini tarbiyalash orqali oliyjanob maqsadlarga erishish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu maqsadlarni amalga oshirishda yana bir omil hadisshunoslik merosini o‘rganish zamonaviy axloqiy-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ayniqsa, Movarounnahr hadisshunoslaring boy ma’naviy merosini o‘rganish, ularni tarjima qilish, zamonaviy jamiyat ma’naviy hayoti uchun muhim jihatlarini joriy etish muhimdir. Tarixdan ma’lumki, hadislar o‘z davrida kishilarni o‘zaro hamjihatlikka, birlikka undab kelgan. Islom dinining insonparvar g‘oyalarini o‘zida mujassam etgan hadislar bugungi kunda ham ma’naviy, ma’rifiy ahamiyati bilan mamlakatimizda barqaror vaziyatni yuzaga keltirishda yetarlicha xizmat qila oladi. Bugungi kunda mamlakatimizda hadisshunos namoyandlarining irfoniy meroslari ham chuqur va teran o‘rganilmoqda. Bundan tashqari tariqat pirlarining ibratomuz hayot tarzlari, poklik, halolikka komillika undovchi qarashlari keng targ‘ib etilmoqda. Insoniyat taraqqiyotining barcha davrlarida diniy va tasavvufiy ta’limotlar shaxslararo bag‘rikenglikni ta’minalash omili sifatida muhim ahamiyat kasb etgan. Qadimiylar - Avesto, Vedalar, Bibliya va Qur’oni karimda bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirishga oid g‘oyalar ilgari surilgan. Xususan, “Zardushtiylik axloqida ezgulik va yovuzlik, yorug‘lik va zulmat, haqiqat va yolg‘on o‘rtasidagi kurash”⁴ haqidagi g‘oyalar insoniyat davomiyligini ta’minalashda bag‘rikenglikning ahamiyatiga ishoradir. Barcha dinlar har qanday jaholatni qoradaganlar va ezgulikni yoqlab insonni o‘zini o‘zidan himoya qilishga o‘rgatganlar. Buyuk islom olimlari Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Alouddin Mansur, Muhammad Taqiy Usmoniy, Doktor Muhammad Said Ramazon Butiy va Muhammad Sayyid Tantoviy o‘zlarining siyosiy, diniy va

ijtimoiy boshqaruv faoliyatida diniy hamda dunyoviy bag'rikenglik madaniyati mutanosibligi jamiyatda tinchlik va barqarorlikning kafolati ekanligini ta'kidlaganlar. "Bugungi kunda butun dunyo, ayniqsa, Islom hamjamiyati davrning tahlikali tahdidlari bilan yuzma-yuz turibdi. Islom dinini siyosiyashtirish va muslimon yoshlarni radikallashtirish borasidagi urinishlar bunday xatarlarni o'ta jiddiy tahlil qilish, baholash va ularga munosib javob berishni taqozo etmoqda. Dunyodagi ayrim doiralar islomga qarshi kayfiyatni kuchaytirgan holda, islom dinini terrorizm mafkurasi bilan bog'lashga urinayotganini ming afsus bilan qayd etishga to'g'ri keladi. Bu omil islom olamini yanada jipslashishga chorlamoqda. Islom hamjihatligi jahondagi keskinlikni yumshatishda muhim rol o'ynashi mumkin". Bundan tashqari, buyuk imom zamon talablariga muvofiq ravishda o'zining diniy va fiqhiy ta'limotlarini ishlab chiqishda Qur'on va Sunnatdan boshqa manbalar – ijтиҳод, о'xshashlik va urf-odatlardan foydalangan. Shu munosabat bilan islomda bag'rikenglikni egallashda urf-odatlardan fiqh manbai sifatida foydalanish katta rol o'ynadi. Chunki bu o'z urf-odatlari bilan bog'langan arab bo'lmagan xalqqa islom madaniyatida, milliy qadriyatlarida alohida o'rinn tutishi, milliy madaniyatlarning tiklanishi va saqlanishiga ko'maklashish imkoniyatini beradi. Buyuk imom mahalliy tillarni ham hurmat qilgan. Hanafiya ilohiyoti va huquqshunosligi ta'limotining ushbu jihatni bu ta'limotni qabul qilgan xalqlarga o'z milliy urf-odatlariga hech qanday to'siqsiz amal qilishlariga imkon berdi. Shu barobarida Abu Bakr Kalobodiy X asrda tasavvufning nazariy asoslarini Buxoroda yaratdi. Tasavvufning inson erki, hurfikrlikni insonning insonga tobe' emasligini nazariy jihatdan isbotlab berdi. Albatta, Qur'on va Sunnaga tayangan ushbu ta'limot keyingi davr tariqatlari va tasavvufiy ta'limotlari uchun mustahkam zamin yaratdi. Abu Bakr Kalobodiy "insonlarning insonga g'amxo'rlik, mehru-shafqat, mehribonlik qiladigan va kishilar qo'lidagi narsalarga nazar qilmaydigani Haqqa yaqindir"²-deb yozadi. Ko'rinih turibdiki, islom dining insonparvarlik mohiyati aks etgan allomaning fikrida o'rta asr bag'rikengligining yorqin ifodasi o'z aksini topgan.

² Abu Bakr Kalobodiy. At-ta'arruf. Tarj. Otaql Mavlona o'g'li va Mavluda Otaql qizi.T.G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti .2002 –B. 48.

Shuningdek, insonning insonga g‘amxo‘rligi birinchi galda odamning o‘z zotiga hurmati va ehtiromi sifatida qaralsa, mehru-shafqatliligi olam va odamni asrashdek bir ulug‘vor burchini uqtiradi. Abu Bakr Kalobodiy “inson hoh olim, hoh johil, yoki arab, yo ajam bo‘lsin o‘zaro mehru shafqatli bo‘lishi lozim”, -deb insoniyatni o‘zaro mehr-oqibatli o‘z zotiga hurmatda bo‘lishga chaqiradi. Tasavvufiy merosdan shunga o‘xshagan ko‘plab fikr va g‘oyalarni keltirish mumkin. Bugungi kunda dunyodagi musulmonlarning aksariyat qismini tashkil etadigan hanafiy mazhabining turli xalqlar orasida tarqalishining sabablaridan biri uning bag‘rikengligi va insonparvarligi bo‘lgan. Bunga qo‘srimcha ravishda, Abu Hanifa islomda aql va bag‘rikenglik g‘oyasini rivojlantirish bilan birga, o‘z ta’limotining ushbu ustunlarini islom axloqi bilan bog‘lash uchun ko‘p harakat qilgan. U axloqni din tabiatining bir qismi deb bilgan, axloq qoidalariga rioya qilishni “mo‘minning ichki ishlarini tartibga soluvchi” musulmonlar uchun diniy majburiyat, deb bilgan. Buyuk imom shu tariqa bag‘rikenglikning axloqiy jihatlarini takomillashtirdi. Shu nuqtai nazardan, hanafiylik mazhabi ommaviy xalifalik va abbosiylar siyosiy inqirozi paytida, siyosiy va diniy kurashlarning avj olishida islomning ma’naviy-axloqiy hodisa sifatida shakllanishida muhim rol o‘ynadi. Shuning uchun hanafiy mazhabi nuqtai nazaridan, ekstremistik va terroristik g‘oyalarni targ‘ib qilishda islomdan foydalanish islomga qarshi harakat hisoblanadi. O‘zbekistonda bag‘rikenglik g‘oyalari o‘ziga xos tarixiy asoslarga ega ekanligini, jamiyatda yashayotgan turli millat va elatlar hayotlaridan bilsak ham bo‘ladi. Bag‘rikenglik tamoyillari ham axloqiy, ham siyosiy tarafdan davlatning jamiyat oldidagi burchlarini bajarishda ko‘rinadi. Jamiyatda xilma-xil dunyoqarash va fikrga, o‘ziga xos xarakterga ega insonlar yashaydi. “Agar odamlar, madaniyatlar va xalqlarning turli-tumanligi qadriyat va madaniyat fazilati sifatida maydonga chiqsa, u holda o‘zaro raqobatdagi madaniyatlar o‘rtasidagi kelishuv me’yori, o‘zgacha mantiq va qarashlarni qabul qilish sifatidagi bag‘rikenglik xilma-xillikni saqlab qolish sharti, o‘ziga xoslikka bo‘lgan tarixiy-falsafiy xuquqdir”. ³ Aytish mumkinki,

³ Qodirova Z.R., Sharipov A.J., Alimasov V.A., Karimova E.G., Madaeva Sh.O. Yoshlar ijtimoiy faolligi va bag‘rikengligini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 2006. – B.23.

bag‘rikenglik madaniyati millatlar taraqqiyoti uchun zarur huquqiy ehtiyoj bo‘lib, turli darajalarda rivojlanib boraveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyusiyani qabul qilish taklifi bilan murojaat qilgan nutqi. <https://religions.uz/news/detailid=589>
2. Abu Bakr Kalobodiy. At-ta’arruf. Tarj. Otaql Mavlona o‘g‘li va Mavluda Otaql qizi.T.G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti .2002 –B. 48.
3. Qodirova Z.R., Sharipov A.J., Alimasov V.A., Karimova E.G., Madaeva Sh.O. Yoshlar ijtimoiy faolligi va bag‘rikengligini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 2006. – B.23.
4. Iskandarov B. Tasavvuf falsafasi. – Toshkent: O‘qituvchi. 1995. – B.16.